

## MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISHDA ADVOKATLARNING HUQUQIY JAVOBGARLIGI

Yuldashev Axmad

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20485030>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanish jarayoni tizimli va kompleks tarzda tahlil qilingan. Advokatlarning ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlashdagi majburiyatlari, ularning texnik savodxonlik darajasi, mutanosib va maqsadli foydalanish jarayonlar, xalqaro amaliyot bilan xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Avstraliya, Fransiya va Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi umumiy standart va tajribalar orqali tizimli tarzda tushuntirib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligini buzilishi va bunga sabab bo'luvchi omillar hamda advokatlarning boshqa tashkilot va tizimlardagi texnologik qulayliklarga ishonishi natijasida ma'lumotlarni xavfsizligini buzilishi ko'rsatdi. Maqolada raqamli texnologiyalarni sohaga kirib kelishi advokatlarning majburiyatlarini qayta ko'rib chiqishi kerakligi, qulayliklar yaratishi bilan bir qatorda ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlash bo'yicha javobgarlik masalasi ham yoritib o'tildi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra sohaga sun'iy intellektning kirib kelishi raqamli javobgarlikni oshib borishi hamda soha vakillari yondashuvlarini takomillashtirish zarurligini ham ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** Legal-Tech, ma'lumot bazalari, axborot xavfsizligi, raqamli javobgarlik, advokatlik faoliyati, huquqiy javobgarlik, shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi, professional ehtiyotkorlik.

### KIRISH

Yuridik sohaga sun'iy intellekt va raqamli axborot texnologiyalarini kirib kelishi natijasida sohada juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Hujjatlarni tayyorlash jarayonidan tortib ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish, ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi kamchiliklarni aniqlashgacha bo'lgan jarayonlarda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ishtirok etadi. Sohaga shu kabi texnologiyalarni kirib kelishidan boshqa kasb vakillaridan tashqari advokatlar ham birdek manfaatdor bo'lishdi. Ular o'z mijozlarini huquqlarini himoya qilish maqsadida juda ko'plab elektron saytlar va platformalarga murojaat qilishadilar. Ushbu tizimlardan foydalanish advokatlar uchun ish samaradorligini oshirib berish bilan bir qatorda ulardan foydalanishda javobgarlik masalasini ham unutmaslik kerak. Advokatlik kasbi yuqori darajadagi aniqlik va professionallikni, qolaversa, o'z ishida maxfiylikni ham talab qiladi. Ma'lumotlar bazalaridan foydalanish jarayonida olingan ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish, ularni mualliflik huquqini olgan holda va ularning ruxsati bilan axborotdan foydalanish, ularni tarqatish jarayonlarida xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda ish tutish kasb etikasining bir qismi hisoblanadi. Advokatlar tomonidan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan asosiy muammolardan biri – bu ma'lumotlarning xavfsizligi va o'z himoyasi ostidagi shaxsning ma'lumotlarini himoyasidir. Ular kasbi shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlashni taqazo etadi. Ma'lumot bazalaridan foydalanish jarayonida esa ushbu ma'lumotlarni uchinchi shaxslarning qo'lib tushib qolishiga yo'l qo'ymasligi va ularni sir saqlash majburiyati ularda har doim mavjud

bo'ladi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Advokatura to'g'risidagi qonunning 9-moddasida bayon qilib qo'yilgan. Unda yozilishicha: **“Advokat advokatlik sirini saqlashi shart”**.<sup>1</sup> Mana shu nuqtayi nazardan qaraganda javobgarlik masalasi muhim hisoblanadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida belgilanganidek, “har bir inson shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.”<sup>2</sup> Boshqa davlatlarda ham advokatlarning faoliyati va ularning ma'lumotlar bazalaridan foydalanishdagi javobgarlik masalasini aniq bir standart asosida belgilab qo'yishgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun advokatlar o'z zimmasiga foydalanayotgan ma'lumotlarini to'g'riligini, qonuniyligini va ularning ishonchli ekanligiga to'laligicha javobgar hisoblanishadi. Reglamentga muvofiq ular ma'lumotdan noto'g'ri foydalanishgani uchun moliyaviy va fuqaroviy javobgarlik masalasi ham belgilab qo'yilgan.<sup>3</sup> Shuningdek, advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanishda kasbiy etika va professionalizmi bilan ham bevosita bog'liq. Ular nafaqat qog'oz shaklidagi ma'lumotlarga javobgar hisoblanadi. Qolaversa, elektron shakldagi ma'lumotlardan foydalanayotganda ham maxfiylik va xavfsizlik masalasi ular uchun birinchi o'rinda turadi. Agar advokatning kasbga nisbatan loqaydligi, bilimsizligi yoki texnik ko'nikmalarning yetarli emasligi natijasida ma'lumotlardagi maxfiylik buzilsa, ular o'z kasbiy majburiyatlarini bajarmagan hisoblanadi. Buning uchun javobgarlik belgilangan. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari Advokatlar Assotsiatsiyasida bunday darajadagi kasbiy etika qoidalariga amal qilmagani uchun huquqiy oqibatlar belgilab qo'yishgan.<sup>4</sup> Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tizimida ham bunga doir masalalarni tegishli normativ huquqiy hujjatlar asosida mustahkamlab qo'yishgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” gi qonunda axborotni ruxstasiz yig'ish, saqlash yoki tarqatish huquqiy javobgarlikka sabab bo'lishi qonun normasi bilan belgilab qo'yilgan.<sup>5</sup>

## USULLAR

Ushbu maqolada advokatlarning ma'lumotlar bazalaridan foydalanishidagi huquqiy javobgarlik masalasini har tomonlama kompleks tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotning asosiy metodlaridan biri bo'lgan normativ-huquqiy tahlil usulida advokatlarning ma'lumotlardan foydalanishga oid huquqlari va cheklovlari yoritib o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonuni, “Advokatura to'g'risida”gi qonuni hamda boshqa huquq sohalari Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunning tegishli moddalarin tahlil qilib o'rganilgan. Xususan, **Jinoyat kodeksining 141<sup>2</sup>-modda**. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish deb nomlangan normasida shaxsga doir ma'lumotlardan qonunga xilof yo'l bilan yig'ilgan, saqlangan va tarqatilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 150 baravarigacha jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi aytib o'tilgan.<sup>6</sup> Qolaversa, **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunning 46<sup>2</sup>-modda**. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa

<sup>1</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/uz/docs/-54503>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya <https://lex.uz/docs/-6445145>

<sup>3</sup> Complete guide to GDPR compliance <https://gdpr.eu/>

<sup>4</sup> Center for Professional Responsibility [https://www.americanbar.org/groups/professional\\_responsibility/](https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/)

<sup>5</sup> Qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-4396419>

<sup>6</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-111453>

ellik baravari miqdorida javobgarlik chorasini qo'llash belgilab qo'yilgan.<sup>7</sup> bunday turdagi javobgarlik choralarini qo'llashdan asosiy maqsad ma'lumotlarning xavfsiz bo'lishi, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan shaxsiy daxlsizlik va sirlarini saqlashni ta'minlashdan iboratdir. Shu bilan birga ushbu tadqiqotda qiyosiy huquqiy tahlil ham muhim hisoblanadi. Negaki, boshqa davlatlardagi advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanishdagi yondashuvlari nafaqat tajriba uchun, balki milliy qonunchilik tizimiga ham tatbiq qilish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida **American Bar Association tomonidan ishlab chiqilgan Model Rules of Professional Conduct** deb nomlangan advokatlar uchun umumiy mezonlarni belgilan bergan hujjatning ABA Model rules 1.1-moddasi "Advokatlardan mijozlarning huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalar va qobiliyat talab etiladi". Ushbu yondashuvga ko'ra ma'lumot bazalaridan foydalanish jarayonida yetarli darajada xavfsizlik choralarini ko'rmasa ma'lumotlar uchinchi shaxslarning qo'lga tushib qolishi mumkinligi haqida aytilgan.<sup>8</sup> Bundan tashqari tizimli tahlil usuli ham mavjuddir. Ushbu usul bizga advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanishdagi huquqiy javobgarligini yaxlit bir institut sifatida o'rganishga imkon beradi. Bu esa bizga tizimdagi turli xil bo'shliq va kolliziyali holatlarni aniqlashga hamda ularga yechim topishga yordam beradi. Bundan tashqari ma'lumotlardan foydalanish jarayoni to'liq tahlil qilish uchun funksional huquqiy tahlil usulidan ham foydalanib o'tganmiz. Demak, biz funksional tahlilda quyidagicha ma'lumotlardan foydalanish jarayonini ko'rishimiz mumkin:

- Ma'lumotlarni yig'ish – ushbu jarayonda ma'lumot manbadan ruxsat so'ralgan va qonuniy asoslarga ega bo'lgan holda olinadi.
- Ma'lumotlarni saqlash – aynan mana shu bosqichda advokatning axborotni saqlashdagi eng muhim majburiyati ishga tushadi. ECHR amaliyotida uzoq muddat davomida ma'lumotni saqlash uning xavfsizlik qoidalariga dahl qilishi mumkinligi aytib o'tilgan.
- Ma'lumotlarni qayta ishlash – shaxsga tegishli bo'lgan ma'lumotni qayta ishlash jarayonida uning ma'lumotlariga noto'g'ri ishlov berish va foydalanish ularning huquqlarini buzilishiga olib keladi.
- Ma'lumotni uchinchi shaxslar qo'lga tushib qolishiga sabab bo'luvchi faktlarni aniqlash jarayonidir. Sudlar axborotni uzatish jarayoni qonuniy va adolatli bo'lishi kerak deb hisoblashadi. Aks holda shaxslarning huquqlari buzilishini ta'kidlashadi.<sup>9</sup>

Mazkur usullar tadqiqotni har tomonlama va chuqur tahlil qilgan holda o'rganishga yordam beradi. Buning natijasida esa advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanishi davomida ularning huquqiy javobgarlikni masalasi har tomonlama nazariy va amaliy misollar bilan o'rganiladi.

### **NATIJALAR**

Tadqiqot davomida advokatlarning ma'lumotlar bazalaridan foydalanaish davomida yuzaga keladigan eng katta muammolardan biri bo'lgan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash masalasi hamon asosiy mavzu bo'lib qolmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan so'nggi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuridik sohadagi ma'lumotlar bazalari kiberxavfsizlik jihatdan olganda eng zaif tizim sifatida ko'rsatilgan. Yevropa

<sup>7</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-97664>

<sup>8</sup> Center for professional Responsibility [https://www.americanbar.org/groups/professional\\_responsibility/](https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/)

<sup>9</sup> HUDOC – European Court of Human Rights <https://hudoc.echr.coe.int/>

Ittifoqining Kiberxavfsizlik bo'yicha tashkiloti bo'lgan (ENISA) ham ushbu ma'lumotlarni tasdiqlagan. Shu bilan birga, shaxslarning ma'lumotlari saqlanadigan bazalarga kiber hujumlar uyushtirish va ularga ruxsatsiz kirish jarayonlari borgan sari ortib bormoqda. ENISA ma'lumotlariga ko'ra, aksariyat hollarda advokatlik firmalari katta hajmdagi ma'lumotlarni, xususan, moliyaviy hujjatlarni, shaxsga doir ma'lumotlarni bazalarga kiritish jarayonida yoki bazadan shunga o'xshash ma'lumotlarni olishda tizimda o'zidan keyin iz qoldirib ketishadi (tarix tozalanmay qoladi) bunday vaziyatda tizimda kiber hujum bo'lganda mijozlarning ma'lumotlarini yo'qolishi, o'chib ketishi yoki boshqa shaxslarga tarqalib ketish holatlari yuzaga keladi. Ko'pchilik bunday holatlarning vujudga kelishini advokatlarning ma'lumot bazalarini yetarli darajada shifrlamagani yoki bo'lsa advokatlar uchun xavfsizlik masalasi ikkinchi darajali masala sifatida ko'rishishini ta'kidlashadi. Qolaversa, ushbu sabablardan tashqari advokatlarni va ularni yordamchilarini ma'lumot bazalaridan foydalanishda oddiy parollar yoki xavfsizlik choralari qo'llashi bo'lsa, yana boshqa sabablardan biri esa himoyalangan wi-fi yoki internet tarmog'idan foydalanish, qolaversa, umumiy foydalanishdagi qurilmalarni doimiy ravishda ma'lumot bazalariga kirishda foydalanish ma'lumotlarning xavfsizligini buzilishiga olib kelmoqda.<sup>10</sup>

Bundan tashqari, advokatlarning shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida belgilangan qoidalarga amal qilmasligi natijasida ma'lumotlarning o'zgarib ketishi yoki ularni noto'g'ri tarzda sharhlash natijasida inson huquqlarini buzilish holatlari ham uchrab turibdi. Ushbu vaziyatga misol tariqasida, Buyuk Britaniya axborot tashkiloti (ICO) tomonidan olib borilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarda noto'g'ri foydalanish yoki ularni saqlash jarayonida qoida buzilish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun jarimaga tortilgan holatlar ham mavjudligi haqida aytib o'tishgan. Ushbu vaziyatdan shuni bilish mumkinki, advokatlar uchun faqatgina bilim va ko'nikmalar emas, balki texnik jihatdan ham yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi bugungi kunda muhim hisoblandi.<sup>11</sup> Yana bir muhim jihati shundaki, advokatlarning ma'lumotlar bazalaridan foydalanish jarayonida "maqsadga muvofiqlik" prinsipiga amal qilgan holda foydalanishi kerakligi haqida masala bugungi kunda xalqaro amaliyotda juda ko'p uchrayotgan holatlardan biri hisoblanadi. Ya'ni ushbu tamoyilning maqsadi shundan iboratki, advokat bir maqsad, ish yuzasidan to'plagan ma'lumotlarni boshqa maqsadlar uchun ishlatmasligi kerak. Fransiyaning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha vakolatli organi CNIL tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, yuridik sohada katta hajmdagi ma'lumotlar bazalarining mavjudligi ma'lumotlar xavfsizligi uchun katta muammo yaratmoqda. Shaxsiy hujjatlar, sud qarorlari, protsessual hujjatlar va bundan tashqari shaxsga doir barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bazalar advokat va yuristlar uchun tahliliy manba bo'lib xizmat qilsada, ulardan foydalanishga doir aniq cheklov va qoidalarni o'rnatib qo'yish muhim hisoblanadi.<sup>12</sup>

OECD tahliliy natijalariga ko'ra, advokatlar advokatlar ma'lumot bazalaridan foydalanish jarayonida boshqa kompaniya va tashkilotlar tomonidan taklif qilinayotgan Legal-Tech platformalariga haddan tashqari ishonib qolayotganligi, tahliliy jarayonda texnologik

<sup>10</sup> ENISA – European Union Agency For Cybersecurity <https://www.enisa.europa.eu/publications/cybersecurity-for-law-firms>

<sup>11</sup> ICO – enforcement action <https://ico.org.uk/action-weve-taken/enforcement/>

<sup>12</sup> CNIL – Commission Nationale de l'Informatique et des Libertés <https://www.cnil.fr/en/data-protection-and-law-profession>

qulaylikni ma'lumotlarni xavfsizligiga oid huquqiy nazoratdan ustun qo'yayotgan holatlari ham uchrab turayotgani ta'kidlangan. OECDning bayon etishiga ko'ra, ko'p hollarda advokatlar ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida nazorat faqat platformada bo'lishi natijasida ma'lumotlarning qayerda saqlanayotgani, qanday himoya qilinayotganiga oid ma'lumotlarga ega bo'lmagani uchun ma'lumotlarni nazorat qila olishmaydi.<sup>13</sup>

Qolaversa, ushbu risklarni oldini olish maqsadida Buyuk Britaniya Huquq jamiyati (Law Society) tomonidan ilgari surilgan advokatning ma'lumotlarni xavfsizligi masalasida yo'l qo'ygan xatolarini o'z majburiyatlarini buzish holati sifatida sudlarda kvalifikatsiya qilinishini ilgari surmoqda. Law Society ilgari surgan ma'lumotlarga ko'ra, advokatlarni ma'lumot bazalaridan foydalanish jarayonida yetarlicha xavfsizlik choralarini ko'rmasligi, oddiy parollarni o'rnatishi va ikki bosqichli autentifikatsiyani qo'llamasligi natijasida yoki ma'lumotlarni to'raligicha shifrlamasligi advokatning professional burchlarini va majburiyatini buzish sifatida baholamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, raqamli raqamli texnologiyalar advokatlarning faoliyatini osonlashtirgan va ularga ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida bir qancha qulayliklar yaratishi bilan texnologiyadan foydalanishga doir majburiyatlarni ham yuklamoqda.<sup>14</sup>

### **MUHOKAMA**

Ushbu maqoladagi izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yuridik sohada advokatlar sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari bilan ishlay olish ko'nikmlarini rivojlantirmas ekan sohada ma'lumotlarning xavfsizligiga oid muammolar murakkablashaveradi. Axborot texnologiyalarini sohaga integratsiya qilish natijasida advokatlart o'z kasbiy majburiyatlarini qaytadan ko'rib chiqish majburiyati paydo bo'ldi. Shaxsga doir ma'lumotlarning himoyalinishi, axborotning xavfsiz va ishonchli bo'lishi masalasi endi nafaqat qonuniy, balki kasbiy zaruriyatni ham taqazo etib kelmoqda. Maqolaning muhokama qismida shuni narsani aytib o'tish kerakki, raqamli texnologiyalar advokatlik kasbini butunlay o'zgartirib yubormoqda. An'anaviy advokat oldin faqat mijoziga yuridik maslahat berish va uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilgan bo'lsa, endilikda raqamlashuv jarayonida ularning ma'lumotlarini xavfsizligini hamda ularning nazorat qilinishi ham olmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, ENISA va OECD advokatlik firmalarining yuqori darajada kiber hujumlardan himoyalanganligi va ma'lumotlarning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Raqamlashuv davrida raqamli javobgarlik masalasi bo'yicha Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasi ( International Bar Association) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarda advokatlar katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi bilan ishlayotganda "ishonchli boshqaruv" tamoyili asosida (data governance) ish olib borishi lozim. Bu tamoyilning ma'nosi shundan iboratki, advokatni nafaqat ma'lumotdan foydalanayotganda uning xavfsizligini ta'minlashi, balki ishlov berish jarayonida ma'lumotning o'zgarmasdan asl holicha saqlanib qolishiga ham javobgar hisoblanadi. Qolaversa, Birlashgan Millatlari Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan yuridik ma'lumotlar bazalaridan foydalanilganlik uchun hamda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar uchun "javobgarlik

<sup>13</sup> The OECD helps policy makers shape digital transformation for a trusted, sustainable and inclusive digital future. Through evidence-based policy analysis and as a global standard setter, the OECD supports countries in navigating the profound effects of digital transformation in areas such as connectivity, privacy, data flows, artificial intelligence and emerging technologies, safety, security, and policy design at the intersection of digital and other policy domains.  
<https://www.oecd.org/en/topics/digital.html>

<sup>14</sup> The Law Society <https://www.lawsociety.org.uk/>



zanjiri” deb nomlangan tushuncha ilgari surilgan. Ya’ni ushbu jarayonda har bir subyekt axborotni olish, saqlash va uni tarqatishda o’zi qatnashgan jarayon uchun javobgar bo’lishi ta’kidlab o’tilgan. Advokatlar esa ushbu jarayonda alohida subyekt sifatida qatnashishadi hamda ularning ushbu vaziyatdagi javobgarlik masalasi ham boshqa subyektlarga nisbatan kamroq bo’ladi. Negaki, advokatni ma’lumotlarni olishda bevosita tashkilotlar va tizimlardan foydalanishadi. Ushbu jarayonda texnologik vositachi mavjud bo’lgani uchun javobgarlikni katta qismi vositachi bo’lgan tarafga qo’yiladi.<sup>15</sup> Ushbu muhokama qismida alohida ko’rib chiqiladigan mavzu bo’lgan ma’lumotlardan qayta foydalanish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Kanadaning ma’lumotlarning maxfiy saqlanishiga doir ishlarga vakolatli bo’lgan organining ma’lumot berishiga ko’ra, advokatlar faqat ma’lumotni bir maqsadda va ayni bir ishda foydalanishi uchun olishi kerak. Boshqa huquqiy vazifa doirasidan tashqari bo’lgan ishlar uchun foydalanishga doir “funksional cheklov” o’rnatish kerakligi hamda huquqiy javobgarlikka maslasini qaytadan ko’rib chiqish lozimligi ta’kidlangan. Kanada tajribasi shuni ko’rsatadiki, advokatlik faoliyatida katta hajmdagi ma’lumotlar bazasi bilan ishlanayotganda, xususan, sud hujjatlari, moliyaviy masalalar, shaxsga doir hujjatlar, shaxsiy profillar faqatgina huquqiy doirada foydalanish kerakligini, agar bu cheklovdan chiqiladigan bo’lsa inson huquqlari va uning qonuniy manfaatlarini xavf ostida qolishi mumkinligi aytiladi. Ushbu jarayonda advokatlarning “kasbiy manfaati” asosiy sabab qilib ko’rsatilmashligi, ma’lumotlardan foydalanishda qonuniylik, mutanosiblik va maqsadlilik prinsiplariga amal qilish alohida baholanishi kerak.<sup>16</sup>

Xuddi shunday advokatlarga majburiyat yuklaydigan standartlardan biri – bu Avstraliya huquq kengashi (Law Council of Australia) tomonidan joriy etilgan “raqamli ehtiyotkorlik standarti” yuridik soha vakilining an’anaviy majburiyatlarini kengaytirib, texnologik savodxonlik darajasini ham oshirishi kerakligini, xavflarni oldindan aniqlash va ularni oldini olish majburiyatini ham yuklashadi. Ushbu yondashuvga ko’ra, advokatlar ma’lumot bazalaridan foydalanish jarayonida nafaqat huquqiy xatoliklarni bilishi, balki texnik jihatdan eskirgan dasturiy ta’minotlardan foydalanmasligi, himoyalangan serverlarda ma’lumotlarni saqlamasligi kerakligi ularning kasbiy etikasining bir qismi hisoblanadi.<sup>17</sup>

## **XULOSA**

Advokatlar tomonidan ma’lumot bazalaridan foydalanish jarayonidagi eng asosiy muammolar, asosan, ma’lumotlarning xavfsizlik qoidalarini buzilishi, shaxsga doir ma’lumotlardan maqsadsiz va qonunga muvofiq bo’lmagan hollarda foydalanish, uchinchi tomon tizimlaridan foydalanishda ma’lumotlar ustidan nazoratning mavjud emasligi, tizim va platformalarga haddan tashqari ishonib yuborish, yuridik soha vakillarining texnik jihatdan to’liq bilim va ko’nikmaga ega emasligi va ularning ehtiyotsizligi tufayli ma’lumotlarning xavfsizlik qoidalarini buzilmoqda. Ushbu yo’nalishdagi xalqaro huquqiy yondashuvlar va advokatlarning ma’lumot bazalaridan foydalanish jarayonini alohida institut sifatida o’rganish turli davlatlarda turli xil standart va yondashuvlar bo’lishiga qaramasdan, umumiy tendensiya bir xilda rivojlanib bormoqda. Ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlashdagi majburiyatlar yuridik sohaga sun’iy intellekt qanday integratsiya qilingan bo’lsa, ularning ham o’z ish

<sup>15</sup> United Nations – Secretary – general’s roadmap for digital cooperation <https://www.un.org/en/content/digital-cooperation-roadmap/>

<sup>16</sup> Office of The Privacy Commissioner of Canada <https://www.priv.gc.ca/en/privacy-topics/>

<sup>17</sup> Law council of Australia <https://lawcouncil.au/resources/publications>

jarayonida shunday integrtasiya bo'lib bormoqda. Umumiy xulosa qilib aytganda, advokatlarning ma'lumot bazalaridan foydalanishdagi javobgarlik masalasi ko'p qatlamli bo'lib, o'z navbatida axborot sohasidagi etikaga amal qilish kerakligini talab qiladi. Shuningdek, yuridik sohani tartibga soluvchi milliy va xalqaro normalar zamonaviy raqamli tahdidlarga moslashish kerakligini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Advokatura to'g'risidagi qonun
3. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun
4. Jinoyat Kodeksi
5. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi
6. Law council of Australia <https://lawcouncil.au/resources/publications>
7. United Nations – Secretary – general's roadmap for digital cooperation <https://www.un.org/en/content/digital-cooperation-roadmap/>
8. Office of The Privacy Commissioner of Canada <https://www.priv.gc.ca/en/privacy-topics/>
9. The Law Society <https://www.lawsociety.org.uk/>
10. CNIL – Commission Nationale de l'Informatique et des Libertes <https://www.cnil.fr/en/data-protection-and-law-profession>
11. The OECD helps policy makers shape digital transformation for a trusted, sustainable and inclusive digital future. Through evidence-based policy analysis and as a global standard setter, the OECD supports countries in navigating the profound effects of digital transformation in areas such as connectivity, privacy, data flows, artificial intelligence and emerging technologies, safety, security, and policy design at the intersection of digital and other policy domains. <https://www.oecd.org/en/topics/digital.html>
12. ENISA – European Union Agency For Cybersecurity <https://www.enisa.europa.eu/publications/cybersecurity-for-law-firms>
13. ICO – enforcement action <https://ico.org.uk/action-weve-taken/enforcement/>
14. HUDOC – European Court of Human Rights <https://hudoc.echr.coe.int/>
15. Center for professional Responsibility [https://www.americanbar.org/groups/professional\\_responsibility/](https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/)
16. Complete guide to GDPR compliance <https://gdpr.eu/>